



UDK: 112:400.001.4(17-12)

Zohid BOYMURODOV,  
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent  
E-mail: zoxidboymurodov26@gmail.com.

Xalqaro innovatsion universitet dotsenti N.Urakova taqrizi asosida

### O'ZBEKISTON YOSHLARINING MADANIY SAVIYASI: ASOSIY BELGILAR VA XUSUSIYATLAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston yoshlarining madaniy saviyasi, uning shakllanish omillari hamda asosiy belgilar va xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, yoshlarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga munosabati, axloqiy qarashlari, bilim olishga bo'lgan intilishi hamda zamonaviy axborot makonidagi faolligi yoritib beriladi. Shuningdek, madaniy saviyaning shakllanishida oila, ta'lim tizimi va ijtimoiy muhitning roli alohida e'tibor qaratiladi. Maqolada yoshlarning madaniy rivojlanishida uchrayotgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ham ilmiy asosda tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** madaniy saviya, yoshlar, ma'naviyat, milliy qadriyatlar, axloqiy tarbiya, ta'lim tizimi, ijtimoiy muhit, madaniy rivojlanish, yoshlar siyosati, zamonaviy texnologiyalar.

### КУЛЬТУРНЫЙ УРОВЕНЬ МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА: ОСНОВНЫЕ ПРИЗНАКИ И ХАРАКТЕРИСТИКИ

Аннотация

В статье научно анализируется культурный уровень молодежи Узбекистана, факторы его формирования, а также основные черты и особенности. Также особое внимание уделяется роли семьи, системы образования и социальной среды в формировании культурного уровня. В статье также на научной основе анализируются проблемы, с которыми сталкивается молодежь в своем культурном развитии, и пути их преодоления.

**Ключевые слова:** культурный уровень, молодежь, духовность, национальные ценности, нравственное воспитание, система образования, социальная среда, культурное развитие, молодежная политика, современные технологии.

### CULTURAL LEVEL OF YOUTH IN UZBEKISTAN: MAIN INDICATORS AND CHARACTERISTICS

Annotation

This article scientifically analyzes the cultural level of young people in Uzbekistan, the factors of its formation, and its main characteristics and features. In particular, the attitude of young people towards national and universal values, their moral views, their desire to acquire knowledge, and their activity in the modern information space are highlighted. Special attention is also paid to the role of the family, educational system and social environment in the formation of the cultural level. The article also analyzes the problems encountered in the cultural development of young people and ways to eliminate them on a scientific basis.

**Keywords:** cultural level, youth, spirituality, national values, moral education, education system, social environment, cultural development, youth policy, modern technologies.

**Kirish.** Bugungi globallashuv jarayonida jamiyat taraqqiyoti, avvalo, yoshlarning intellektual va madaniy saviyasiga bevosita bog'liqdir. O'zbekiston yoshlari mamlakatning eng muhim ijtimoiy qatlamlaridan biri sifatida nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy va madaniy rivojlanishda ham hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu bois, yoshlarning madaniy saviyasini o'rganish, uning asosiy xususiyatlarini aniqlash va rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Madaniy saviya-bu shaxsning ma'naviy qadriyatlarni anglash darajasi, estetik didi, axloqiy qarashlari, bilim va tafakkur doirasining kengligi bilan belgilanadi. U insonning ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatida, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi. Yoshlar madaniy saviyasi esa ularning bilim olishga intilishi, san'at va adabiyotga qiziqishi, ijtimoiy faolligi hamda axborot texnologiyalaridan foydalanish madaniyati orqali baholanadi.

**Muhokama va natijalar.** Dunyoning boshqa davlatlarida kuzatilgani kabi, O'zbekistonda voyaga yetayotgan yoshlarning madaniy saviyasi ham o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Xususan, mamlakatimiz yoshlari madaniy darajasining eng muhim belgilaridan biri-ularning bilim olishga bo'lgan kuchli intilishidir. Yigit-qizlar turli sharoitlardan qat'i nazar, ilm egallashni orzu qilib, shu yo'lda izchil harakat qilmoqda. Buni o'z ma'lumotini oshirishga intiluvchi yoshlar

soni ko'pligidan ko'rish mumkin. Masalan, 2025 yil O'zbekistonda davlat oliy ta'lim muassasalari bakalavriatga kirish imtihonlarida qatnashish uchun 732 ming 411 nafar abituriyent hujjat topshirdi[1].

O'zbekiston yoshlari madaniy saviyasining yana bir muhim jihati-uning axloqiy poydevori nihoyatda mustahkam ekanligidir. Yigit-qizlar nafaqat ijtimoiy, balki kasbiy bilimlarni ham avvalo axloqiy mezonlar asosida tanlab, o'zlashtirishga intiladilar. Milliy axloqiy qadriyatlar va normalarga mos keladigan bilimlar ular tomonidan tez va samarali qabul qilinadi. Aksincha, egallanayotgan bilim bilan axloqiy qarashlar o'rtasida muvofiqlik bo'lmasa, bunday bilimni qabul qilish jarayoni ancha murakkablashadi.

Masalan, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin jamiyat hayotining turli jabhalariga boshqa mamlakatlarga xos bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy qarashlar kirib keldi. Biroq yoshlar ularning barchasini to'liq va bir xil darajada qabul qilgani yo'q. Asosan, milliy axloqiy qadriyatlarimizga mos keladigan jihatlari ular tomonidan o'zlashtirildi.

Birinchidan, milliy qadriyatlarga hurmat va sadoqat yoshlar madaniy saviyasining muhim belgilaridan biridir. O'zbekiston yoshlari o'z milliy an'analari, urf-odatlarini, til va madaniyatiga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalanmoqda. Bu

holat, ayniqsa, oilaviy tarbiya, ta'lim muassasalari hamda ommaviy madaniy tadbirlar orqali mustahkamlanmoqda. Natijada yoshlar o'z milliy o'zligini anglashga intilmoqda.

Ikkinchidan, zamonaviy bilim va texnologiyalarga ochiqlik bugungi yoshlarning ajralmas xususiyatidir. Raqamli texnologiyalar, internet va global axborot maydoni yoshlarning dunyoqarashini kengaytirmoqda. Ular xorijiy tillarni o'rganishga, zamonaviy kasblarni egallashga intilmoqda. Bu esa ularning madaniy saviyasini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Uchinchidan, estetik did va ijodkorlikning rivojlanishi ham muhim jihatlardan biridir. Yoshlar san'atning turli yo'nalishlariga-musiqqa, teatr, kino, tasviriy san'atga qiziqish bildirmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar orqali o'z ijodiy ishlari bilan o'rtoqlashish, yangi g'oyalarni ilgari surish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda. Bu esa ularning estetik tafakkurini boyitadi.

To'rtinchidan, ijtimoiy faollik va fuqarolik mas'uliyati yoshlar madaniy saviyasining muhim ko'rsatkichidir. Ko'ngilli harakatlar, jamoat ishlari, ekologik tashabbuslar va turli ijtimoiy loyihalarda yoshlarning faol ishtiroki ularning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlamoqda. Bunday faoliyat yoshlarni mas'uliyatli, tashabbuskor va ongli shaxs sifatida shakllantiradi.

Beshinchidan, axborot madaniyati va tanqidiy fikrlash darajasining oshib borayotgani ham e'tiborga molikdir. Axborot oqimi nihoyatda tezlashgan davrda yoshlar turli manbalardan olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, saralash va ularga tanqidiy yondashish ko'nikmalarini egallamoqda. Bu esa ularni turli salbiy ta'sirlardan himoya qilishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, yoshlar madaniy saviyasini rivojlantirishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, ommaviy madaniyatning salbiy ta'siri, vaqtni samarasiz o'tkazish, kitobxonlik darajasining ayrim hollarda pasayishi kabi holatlar kuzatiladi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardan noto'g'ri foydalanish ham yoshlarning ma'naviy rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun bir qator choralar zarur. Avvalo, ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish, yoshlarni kitob o'qishga rag'batlantirish muhimdir. Bundan tashqari, madaniy tadbirlar, ijodiy loyihalar va yoshlar markazlari faoliyatini kengaytirish orqali ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish lozim. Oila va jamiyat hamkorligini mustahkamlash esa yoshlarning sog'lom ma'naviy muhitda kamol topishiga xizmat qiladi.

O'zbekistonda yoshlar turli qadriyatlarni ham axloq mezonlari asosida tanlaydi va o'zlashtiradi. Fikrimizni demokratik qadriyatlarni o'zlashtirish jarayoniga doir misollar bilan isbotlasak. Mustaqillik yillarida mamlakatda demokratik jamiyat barpo etishga bo'lgan sa'y-harakatlar boshlandi. Shu munosabat bilan jahonning rivojlangan mamlakatlarida qaror topgan qadriyatlar atroflicha o'rganildi, ularning mohiyati mamlakat fuqarolariga yetkazildi. Mazkur qadriyatlar jamiyatni taraqqiy toptirish va turmush farovonligini yuksaltirishning yagona talabi bo'lgani, ayni paytda millatimizning ko'p asrlik axloqiy qadriyatlariga zid bo'lmagani bois asta-sekinlik bilan yoshlar ongi va faoliyatidan joy oldi.

Lekin G'arb mamlakatlarida qadriyat darajasiga ko'tarilgan, biroq milliy axloq normalariga zid bo'lgan ko'plab qadriyatlar muntazam inkor qilib kelinmoqda. Masalan, XX asrning oxirlariga kelib, jinsiy ozchilikning huquqlarini himoya qilish G'arbda qadriyat darajasiga ko'tarildi. Yevropaning aksar mamlakatlarida ushbu "qadriyat" hatto davlat siyosatining insonparvarligi va adolatpeshaligini o'lchovchi mezonga, umuman jamiyatda demokratiyaning qaror topganligi darajasini namoyish qiluvchi omilga aylanib ulgurgan. Lekin bu "qadriyat" va normalar na milliy, na diniy axloqiy meyorlarga mos bo'lgani bois o'zbek yigit va qizlari tomonidan

nafaqat inkor, balki keskin tanqid ham qilib kelinmoqda. Unga turli ijtimoiy tarmoqlarda bildirilgan munosabatlar ham shundan dalolat beradi.

G'arb jamiyatlarida chuqur ildiz otayotgan ko'plab oilaviy qadriyatlar haqida ham shunday deiyish mumkin. Yigirmanchi asrga kelib G'arb jamiyatida oila inson uchun mutlaq qadriyat, bir umrga tuziladigan ijtimoiy institut vazifasini o'tamay qo'ydi. Buning ustiga bugungi kunda G'arb jamiyatida mutlaqo o'zgacha narsalar, an'analar, voqealar, orzu va ideallar, fazilat va xislatlar, munosabatlar qadriyat sifatida tan olinmoqda. Masalan, bu jamiyatda oilaviy individualizm, ya'ni alohida oila a'zosi manfaatlarining umumoilaviy manfaatlardan ustuvorligi yuzaga kelmoqda. O'zbek oilasida esa umumiy manfaatlar birlamchi rol o'ynaydi, ularga zid sa'y-harakatlar axloqiy meyorning buzilishi deb hisoblanadi. Aynan shuning uchun ham O'zbekistonda g'arbona oilaviy individualizmi targ'ib etuvchi qadriyatlarining qabul qilinishi haqida gap ham bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston yoshlari turli g'oyalarni o'zlashtirishda ham axloq mezonlariga tayanadi. Asrlar davomida shakllangan tenglik, adolat, markazlashgan davlat, insonparvarlik va ma'rifatparvarlik g'oyalarining ijtimoiy-axloqiy zaminlari mustahkam bo'lgani, ular jamiyatda hukm surayotgan ijtimoiy-axloqiy muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatgani tufayli yoshlar tomonidan o'zlashtirildi. Mutafakkirlar tomonidan adolat va barkamol inson g'oyalari mazmunlari atroflicha ochib berilgani bois millat ma'naviyatining ajralmas qismiga aylandi. Davlat rahbari tashabbusi bilan "Uchinchi renessans" g'oyasining ilgari surilishi esa ma'rifatparvarlik g'oyalari targ'ibotidan o'zga narsa emas[2]. Ushbu g'oyalar millat axloqiy ideallari, normalariga mos bo'lgani sababli keng jamoatchilik, shu jumladan yoshlar tomonidan ma'qullandi va qabul qilindi.

O'zbekiston yoshlari madaniy saviyasining uchinchi xususiyati shundan iboratki, u insonparvarlik g'oyalari ta'sirida shakllangan. Yigit va qizlar mazkur g'oyalarni jamiyat hayoti, ijtimoiy taraqqiyot, xalq farovonligining markaziy manbai sifatida baholashga odatlanganlar. Buni bizning Qashqadaryo viloyatida 200 respondent orasida o'tkazgan sotsiologik so'rovimiz natijalari ham yaqqol isbotlab turibdi. Unda ishtirok etganlarning barchasi insonparvarlik g'oyalari barcha zamonlarda o'z qadr-qimmatini yo'qotmasligini e'tirof etdilar. Respondentlarga "Jamiyatimiz hayotida qaysi insonparvarlik g'oyalarining ijtimoiy ahamiyati ko'proq?" deb savol berganimizda, ularning 12 foizi tenglik, 49 foizi adolat, 10 foizi g'amxo'rlik, 29 foizi bag'rikenglik g'oyalarini tanladilar. Javoblar respondentlarning nafaqat insonparvarlik g'oyalaridan voqifligini, balki ularga amal qilishga ham odatlanganini ko'rsatib turibdi.

Mamlakatimizdagi yoshlar madaniy saviyasiga xos bo'lgan navbatdagi xususiyat milliy an'ana va marosimlardan xabardorlik va ularga amal qilish darajasining yuqoriligi bilan bog'liq. Milliy an'analar, odatlar, marosimlar hamisha o'zbek jamiyatining muhim elementlaridan biri bo'lganligi bizga yaxshi ma'lum. Bugungi kunda ham "an'analar xalq ma'naviyatining tarkibiy qismi, muhim axloqiy qadriyat, tarbiya vositasi sifatida xizmat qilmoqda. Xalq an'analari amal qilish jarayonida namoyon bo'layotgan odob-axloq, mehr-oqibat, izzat-ikrom kabi xislatlar yoshlar ma'naviyati shakllanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda"[2]. Milliy an'analarning jamiyatdagi roli mudom yuqorilgicha qolayotganini davlat rahbari ham ta'kidlab o'tdi. "Navro'z falsafasi, Navro'z qadriyatlari, deya e'tirof etdi u O'zbekiston xalqiga Navro'z tabrigida, - odamlarning dardu-tashvishi bilan yashash, keksalarga hurmat, muhtoj insonlarga e'tibor va yordam ko'rsatish, adolat va xalqparvarlik faoliyatimiz mezoniga aylanmoqda"[3]. Milliy an'analarning ahamiyati beqiyosligicha qolayotgani tufayli yoshlarning ulardan

xabardorligi darajasi baland, ishtiroki faol bo'lmoqda. Bu turli hasharlar, to'y-tomoshalar, shaxslararo munosabatlarda ayniqsa yorqin ko'zga tashlanmoqda. Masalan, 2020-yilning 14-15 mart kunlari mahallalar, aholi turar joylari va boshqa qator tashkilot binolari atrofida «Obod yurt» umumxalq obodonlashtirish va ko'klamzorlashtirish xayriya hashariga birgina Toshkent shahridan 18 mingdan ortiq fuqaro ishtirok etdi[4]. Turli viloyatlarda ham minglab yigit va qizlar hashar davomida obodonlashtirish ishlari bilan mashg'ul bo'ldilar. Ko'rinib turibdiki, jamiyat a'zolarining, shu jumladan yoshlarning milliy an'analardan voqifligi ham, ularga amal qilishi ham yuksak saviyasi bilan xarakterlanadi.

O'zbekiston yoshlari madaniy saviyasining beshinchi xususiyati shundan iboratki, unda milliy badiiy adabiyot va san'atdan xabardorlik alohida o'rin tutadi. Bunday ta'kid umumjahon miqyosida badiiy adabiyotga qiziqish, undan xabardorlik darajasi jiddiy pasayib borayotgan, san'atga munosabat primitivlashayotgan bir sharoitda bag'oyat paradoksal xulosadek tuyuladi. Ammo o'zbek oilalaridagi milliy adabiyot va san'atga munosabatni, shaxslararo munosabatlarda ularga murojaat qilish chastotasini, ayrim statistik ma'lumotlar va sotsiologik so'rovlar natijasini, nihoyat jamiyatdagi ma'naviy-ruhiy vaziyatni tahlil qilsak, masala birmuncha oydinlashadi.

Keyingi yillarda bu boradagi vaziyat ancha optimallashtirishni qayd etib o'tmoq darkor. Ayniqsa, «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda tartib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risidagi»[5]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorining qabul qilinishi aholiga yuksak ma'naviy-ma'rifiy talablarga javob beradigan milliy adabiyot durdonalarini yetkazish, mutolaa madaniyatini yuksaltirish imkoniyatlarini kengaytirdi. Mazkur qaror milliy adabiyot durdonalarini (biz hozir badiiy adabiyotning faqat shu turkumi haqida mulohaza yuritayotganimiz uchun jahon adabiyotini e'tibordan chetda qoldirayapmiz) chuqurroq o'zlashtirishni tom ma'noda umumjamiyat harakatiga aylantirdi.

#### ADABIYOTLAR

1. Jizzax viloyatida test imtihonlari tadbirlariga tayyorgarlik ishlari qizg'in tus oldi.// <https://fvv.uz/uz/news>, 2020, 19 avgust.
2. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi.// <https://president.uz/uz/lists/view/4057>.
3. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston xalqiga Navro'z tabrigi.// Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. J.2.- T.: O'zbekiston, 2018.- B.479.
4. Ikki kunlik hashar.// [kun.uz](http://kun.uz), 2020, 15 mart.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda tartib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida».// [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
6. Madaniy meros obyektlarining yangilangan ro'yxati tasdiqlandi.// [madaniyat.uz](http://madaniyat.uz), 2019, 8 yanvar.
7. Ziyorat.// O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Z harfi.- [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com).- B.95.

O'zbekiston yoshlari madaniy saviyasining oltinchi xususiyati unda madaniy merosga hurmat tuyg'usining shakllanganligi bilan bog'liq. Bu tuyg'u O'zbekiston yigit va qizlarida ayrica namoyon bo'ladi. Respublikada salmoqli madaniy meros jamlangan. Moddiy madaniy meros obyektlari davlat kadastriga birgina Qashqadaryo viloyatidan 1321 obyekt kiritilgan[6]. Yigit va qizlarning ularga hurmati tuyg'usi aksariyat hollarda ziyorat shaklida namoyon bo'ladi. «Islom dini aqidasi ko'ra, aziz-avliyolarning maqbaralariga ziyorat uchun borganda ularning ruhlaridan madad so'rashlik, hojatlar ravo qilinishi, dardlarga shifo berilishi, farzand ato etilishi kabi iltijolar nojoiz»[7] sanalishiga qaramasdan millat vakillari orasida turli masjid va maqbaralarni, madrasa va majmualarni muayyan niyat bilan ziyorat qilish odat tusiga kirgan. Lekin biz mavzuning diniy aspektlariga e'tiborni jamlamaymiz: har qanday holatda ham ziyoratga moyillik fakti kishilarning madaniy meros obyektlariga ehtiromini ifodalaydi.

Mulohazalarimiz O'zbekistonda shaxs madaniy saviyasining asosiy xususiyatlariga oid zaruriy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Shunday qilib, barcha millat yoshlari madaniy saviyasi kabi, o'zbek yigit va qizlari madaniy saviyasi ham qator xususiyatlarga ega. Mazkur xususiyatlar tarixiy taraqqiyot davomida turli ijtimoiy omillar ta'sirida qaror topgan. Ular turkumiga intellektual, axloqiy, gumanistik va milliy asoslarning mustahkamligini kiritish mumkin.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston yoshlari madaniy saviyasi ko'p qirrali va dinamik jarayon bo'lib, u milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligida shakllanmoqda. Yoshlarning bilimga chanqoqligi, ijodkorligi, ijtimoiy faolligi va zamonaviy texnologiyalarga moslashuvchanligi ularning madaniy saviyasini belgilovchi asosiy omillardir. Shu bilan birga, mavjud muammolarni o'z vaqtida hal etish orqali yoshlarning ma'naviy va madaniy rivojlanishini yanada yuksaltirish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.